Maktabgacha yoshdagi koxlear implantli bolalarni eshituv - nutqiy reabilitatsiyasi	761
Xamraeva Dildora Baxadirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni kelib chiqish sababalari va korreksion ishlar	766
Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna	
Эффективность арт-терапии в обогащении словарного запаса у детей с ЗПП	770
Наган Олеся Талгатовна	
Autizimli bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....	775
Nishonova Sevara	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari (XIX–XXI asrda).....	778
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Autizimli bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish texnologiyalari.....	781
Raxmonova Manzura Maxmudovna	
Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
Usarova Nigora Berdiyevna	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
M. L. Aripova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi	
Malakali futbolchilarni tayyorlashning innovatsion pedagogik va texnologik uslublari.....	802
Maxmudov Mamat Raxmatovich	
Maktabgacha ta'limda madaniy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish metodikasi.....	807
Adolat Xolmatova Muxammadjonovna	
Oliy ta'limda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirishda maxsus pedagogikaning o'rni	811
Alijonova Dilorom Azamjonovna	
Sportning kurash turi tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	815
Do'stov Dilmurod Karimovich	


O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	818
Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich	
The Effectiveness of Art Therapy in Working With Children Experiencing Emotional Stress	821
Ortikova Nargiza Xayrullayevna, Normuratov Laziz Azizovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tovush talaffuzi buzilishining turlarini va darajasini aniqlash usullari	826
Otaboyeva Nodira Qodir qizi	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati	830
Qobilova Aziza Tursunovna	
Intellectual madaniyatni rivojlantirishda integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash texnologiyalari	833
Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich	
Biologiya, kimyo va geografiya fanlarni o'qitishda iqtidorli o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish	837
Sultanova N. B., Toshpo'latova N. I., Azimov B. I.	
Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ	840
Суяров Хуршид Бахриддинович	
Oliy ta'limda sun'iy intellektni boshqarishda rivojlangan chet davlatlar tajribasidan foydalanish usullari	844
Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi	
Variativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari	852
Turapova Ra'no Barat qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga og'zaki hisoblashni o'rgatish	857
Jurayeva Muhayyo Nematillayevna	
Trening jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	861
Nodirova M. B., Usmanova S. A., Vaxidova U. A.	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarining sport faoliyati turlari orqali innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish	865
Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich	
Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	868
Umarova Muhayyo Abdusattor qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna	
The Role of Family Support in Fostering Individual Resilience Against Social Offenses (An Integration of Continuing Education, National Values, and Personal Narratives)	873
Khoshimov Lutfullo Khabibullo ugli	
Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruksiya bilan uyg'unlashtirish	877
Yuldasheva Gulsanam Arken qizi	
Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов	881
Бахриева Шахноза Давроновна	
Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики"	886
Равшанова Иноят Эркиновна	
Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge"	889
Тагаева Тамара Баходировна	
Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi	892
D. S. Zokirova	
O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	895
Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich	
Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari	898
Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi	
Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish	901
Ortiqova Zulfiya Nurmuhamedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi	
Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari	905
Rustemov Muxamed Biysenbayevich	
The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture	908
Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna	



Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
Salixova Muhayyo Shakirovna	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna	
Autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
U. M. Utbasarova	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
Алибекова Лайло Рахмановна	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
Raimova Nasiba Abdreimovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
Turg'unov Mirjalol Mirzahamdami o'g'li	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
Bahronova Maftuna Farhadovna	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MEDIAKOMPETENTLIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: MODEL, METODOLOGIYA VA EMPIRIK NATIJALAR



Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari va mutaxassislarini
qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish instituti
mustaqil izlanuvchisi (PhD)

ORCID: 0009-0006-5776-7423

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishga qaratilgan konseptual model taklif etiladi. Model tarkibi AKT savodxonligi, mediaetika, medialiderlik, mediavaxfsizlik, raqamli kommunikatsiya va ma'lumotlar boshqaruvi bloklaridan iborat. Tadqiqot ob'ekti – MTT direktorlari, predmeti esa mediakompetentlikni boshqaruv amaliyotiga chuqur joriy etish mexanizmlaridir. Metodologiya sifatida tizimli-tarkibiy yondashuv, qiyosiy tahlil, ekspert baholash hamda indekslash (I_MC) qo'llanilgan. 126 nafar direktor ishtirokida amalga oshirilgan tajriba-sinov dizayni orqali mezon va ko'rsatkichlar kalibrlangan. Natijalar integrativ boshqaruv reglamenti va 90 kunlik kontent-kalendar orqali barqaror samaradorlikni ko'rsatdi. Ilmiy yangilik sifatida mediakompetentlikni boshqaruv sikliga bog'lovchi I_MC integrativ indeksining taklif etilgani qayd etiladi. Muallif tavsiyalari normativ hamda amaliy yechimlar majmuasi bilan mustahkamlangan.

Kalit so'zlar: mediakompetentlik, integrativ yondashuv, raqamli kommunikatsiya, mediavaxfsizlik, medialiderlik, AKT savodxonligi, boshqaruv reglamenti, indekslash.

Abstract: The article proposes a conceptual model for developing preschool directors' media competence through an integrative approach. The model consists of ICT literacy, media ethics, media leadership, media safety, digital communication and data governance components. The methodology applies system-structural design, comparative analysis, expert evaluation and indexing (I_MC). A field design involving 126 directors enabled the calibration of criteria and indicators. The results demonstrate sustainable effectiveness achieved through a media-governance regulation and a 90-day content calendar. The scientific novelty lies in introducing the I_MC integrative index that links media competence to the managerial cycle. The author's recommendations are reinforced by normative and practical solutions.

Key words: media competence, integrative approach, digital communication, media safety, media leadership, ICT literacy, governance regulation, indexing.

Аннотация: В статье представлена концептуальная модель развития медиакompetentности руководителя ДОУ на основе интегративного подхода. Структура модели включает ИКТ-грамотность, медиаэтику, медиалидерство, медиабезопасность, цифровую коммуникацию и управление данными. Применены системно-структурный подход, сравнительный анализ, экспертная оценка и индексирование (I_MC). Полевой дизайн с участием 126 директоров позволил откалибровать критерии и индикаторы. Результаты подтверждают устойчивую эффективность регламента "медиа-управления" и 90-дневного контент-календаря. Научная новизна заключается в предложении интегративного индекса I_MC, связывающего медиакompetentность с управленческим циклом. Рекомендации автора подкреплены нормативными и практическими решениями.

Ключевые слова: медиакompetentность, интегративный подход, цифровая коммуникация, медиабезопасность, медиалидерство, ИКТ-грамотность, регламент, индексирование.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (MTT) raqamli muhitning kengayishi direktorning mediakompetentligini strategik resursga aylantirdi. Global MIL paradigmasi va raqamli kompetensiyalar ramkalari (UNESCO MIL, DigCompEdu, ISTE) mediaetika, xavfsizlik va boshqaruvni yagona siklga integratsiyalashni talab etadi ^[1-3, 6]. Shu nuqtai nazardan ushbu tadqiqotning ob'ekti – MTT direktorlarining mediakompetentligidir; predmeti – uni

boshqaruv amaliyotiga chuqur joriy etish mexanizmlari; maqsadi – integrativ yondashuv asosida model ishlab chiqish va uni I_MC indeks orqali baholash; vazifalari – nazariy asoslarni sintez qilish, mezon-ko'rsatkichlarni kalibrlash, tajriba-sinov dizaynini tashkil etish, natijalarni tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro manbalar media va axborot savodxonligini boshqaruv hamda fuqarolik kompetensiyalari bilan bog'laydi ^[1]; o'qituvchi va rahbarlar uchun raqamli kompetensiyalarni bosqichli rivojlantirishni taklif etadi ^[2, 6]; ijtimoiy ishtirok va madaniy kontekstni hisobga oladi ^[3, 4]; medialilikni ko'p o'lchovli kompetensiyalar majmui sifatida talqin qiladi ^[5]. Rossiya ilmiy maktabida mediatizatsiya va media ta'lim yo'nalishlari tizimli yondashuv bilan rivojlantirilgan ^[7, 8]. O'zbekiston me'yoriy-huquqiy bazasida maktabgacha ta'limni modernizatsiya qilish hamda davlat talablari raqamli komponentni faol integratsiyalashni ko'zda tutadi ^[9, 10]. Tadqiqotning ilmiy hissasi – mediakompetentlikni boshqaruv sikli bilan bog'laydigan I_MC indeksi va uni amaliyotga joriy etuvchi "media-boshqaruv reglamenti + 90 kunlik kontent-kalendar" paketini yaxlit tizimda taqdim etishdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tizimli-tarkibiy yondashuvga tayanadi va nazariy hamda amaliy bosqichlarni yagona mantiqiy zanjirga birlashtiradi. Avvalo, mediakompetentlikning tarkibi konstruktiv tarzda modellashtirildi: AKT savodxonligi, mediaetika, medialiderlik, mediaxavfsizlik, raqamli kommunikatsiya va ma'lumotlar boshqaruvi bo'limlari mazmunan aniqlashtirildi hamda ularning o'lchanadigan ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Shundan so'ng qiyosiy taqqoslash usuli qo'llanib, yaratilgan ko'rsatkichlar UNESCO MIL, DigCompEdu va ISTE kabi xalqaro ramkalar bilan moslashtirildi: har bir indikator bo'yicha talablardagi o'xshashlik va farqlar xaritalandi, eng maqbul amaliyotlar ajratildi, mahalliy sharoitga moslashtirish mezonlari belgilandi. Qiyosiy tahlil natijasida indikatorlar matritsasi soddalashtirildi, takroriy bo'laklar chiqarib tashlandi va boshqaruv sikliga bevosita bog'lanadigan ko'rsatkichlar tanlab olindi.

Keyingi bosqichda ekspert baholash o'tkazildi: tajribali metodist va rahbarlardan iborat guruh 9 ballik Likert shkalasi asosida ko'rsatkichlarning ahamiyati va amaliy qo'llanishini baholadi, Delphi yondashuvi orqali kelishilgan vaznlar shakllantirildi. Shu asosda integrativ baholash mexanizmi yaratildi; har bir direktorning ko'rsatkichlari standartlashtirilib, ularning yig'ma balli integrativ indeksga aylantirildi. Empirik tekshiruv uchun Toshkent, Xorazm va Qashqadaryo hududlaridan 126 nafar direktor jalb qilindi; ishtirokchilar nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi, o'lchovlar pretest–intervensiya–posttest ketma-ketligida yig'ildi. Intervensiya paketi "media-boshqaruv reglamenti", 90 kunlik kontent-kalendar, mini media-laboratoriya va yillik attestatsiya elementlaridan tashkil topdi hamda bevosita boshqaruv amaliyotiga joriy qilindi.

Natijalar statistik jihatdan tekshirildi: indeks dinamikasi bo'yicha guruhlar o'rtasidagi farqlar t-test bilan baholandi ($\alpha=0,05$), ishonch oralig'i hisoblandi, ta'sir kuchi Cohen's d orqali aniqlashtirildi. Shunday qilib, qiyosiy taqqoslash usuli indikatorlarni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, ortiqcha elementlarni qisqartirish va mahalliy sharoitga mos, boshqaruvga yo'naltirilgan dizaynni tanlashda asosiy rol o'ynadi; empirik bosqich esa aynan shu dizaynning amaliy samaradorligini isbotlash uchun zarur bo'lgan dalillarni taqdim etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori mediakompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta'lim boshqaruvining ustuvor yo'nalishiga aylanib bormoqda. So'nggi yillarda pedagogik jarayonning mediatizatsiyasi, ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining kuchayishi, bolalar ma'lumotlarini himoya qilishga doir normativ talablarning qat'iylashuvi rahbarlik amaliyotida mediaetik, xavfsizlik va kommunikatsiya ko'nikmalarini bir butun tizim sifatida ko'rishga undamoqda. Xalqaro ramkalar – UNESCO MIL, DigCompEdu va ISTE – mediakompetentlikni faqat texnik savodxonlik emas, balki etik me'yorlar, raqamli xavfsizlik, liderlik va ma'lumotlar boshqaruvi bilan yaxlit majmua sifatida talqin etadi ^[1–3, 6]. Ushbu tadqiqotda mazkur konsepsiya mahalliy boshqaruv muhitiga moslashtirilib, mediakompetentlik boshqaruv sikliga bevosita ulangan integrativ yondashuvda tahlil qilindi.

Empirik ishlar uch hududdan jalb etilgan direktorlar ma'lumotlariga tayandi; dastlab ko'rsatkichlar ontologiyasi aniqlashtirilib, har bir komponent amaliy kuzatuvga qulay, mezonlashtirilgan indikatorlarga ajratildi. AKT savodxonligi bo'yicha platformalardan foydalanish madaniyati, kontentni ishlab chiqish va tahrirlash malakalari; mediaetika doirasida mualliflik huquqi, manba ishonchligi va auditoriya bilan muloqot etikasi; medialiderlikda strategik ko'rish, jamoani ruhlantirish va tashabbuslarni fasilitatsiya qilish; mediaxavfsizlikda bolalar ma'lumotlarini himoyalash, ruxsatlar va insidentlarga tayyorgarlik; raqamli kommunikatsiyada rasmiy kanal siyosati, javob vaqti va ohang barqarorligi; ma'lumotlar boshqaruvida metrikalar, hisobot intizomi va qaror qabul qilishni dalillash kabi elementlar tizimli operatsionlashtirildi. Shundan keyin to'plangan ma'lumotlar tozalanib, stan-



dartlashtirildi; bu, bir tomondan, indikatorlararo solishtirish imkonini kengaytirdi, ikkinchi tomondan esa keyingi statistik baholashda shovqin omillarini kamaytirdi.

Tahlil jarayoni ikki bosqichda olib borildi: avval deskriptiv ko'rinishda umumiy manzara chizildi, so'ng inferensial baholash orqali intervensiya ta'sirining ishonchiligi tekshirildi. Deskriptiv ko'rsatkichlar o'rtacha, median va tarqalish ko'rsatkichlari orqali komponentlar kesimidagi kuchli va nozik nuqtalarni namoyon qildi. Masalan, raqamli kommunikatsiya bo'yicha javob vaqti hamda ohangning barqarorligi ko'pincha tashkilot ichki siyosatiga bog'liq bo'lib, bu yerda formalizatsiya darajasi past bo'lgan muassasalarda fragmentarlik va izchillikning susayishi kuzatildi. Mediavaxfsizlik ko'rsatkichlari esa ko'proq normativ-psixologik omillarga tayanib, texnik tayyorgarlik bilan birga aniq protokollar mavjudligiga sezgirligi bilan ajralib turdi. Indikatorlararo o'zaro bog'liqlik tahlili texnik savodxonlik ortishi bilan xavfsizlik amaliyotlari ehtimoli ham oshishini ko'rsatdi, biroq bu bog'liqlik avtomatik emasligi, normativ tartib va ichki jarayonlar bilan mustahkamlangandagina barqarorlashishi aniqlashtirildi. Bu holat integrativ yondashuvning zarurligini yana bir bor asoslaydi: komponentlar o'zaro ta'sirda bo'lib, faqat kompleks boshqaruv mexanizmi samarali natijani kafolatlaydi [1–3, 5–6, 9–10].

Tadqiqotning markaziy yangiligi – mediakompetentlikni boshqaruv sikliga bog'laydigan integrativ ko'rsatkich (I_MC)dan foydalanishdir. Indeks konstruksiyasi uchun indikatorlar xalqaro ramkalar bilan qiyosiy moslashtirildi [1–2, 6], ekspertlar konsensusi asosida vaznlar belgilandi va har bir direktor bo'yicha z-ballarga asoslangan yig'ma qiymat hisoblandi. I_MC ichki izchilligi qoniqarli bo'lib, model diagnostikasi konstruksiyaning birligi va sezgirligini tasdiqladi. Mazkur indeks, bir tomondan, murakkab kompetensiyalar majmuasini bitta boshqaruvga yaroqli miqdoriy ko'rsatkichga jamlasa, ikkinchi tomondan, qaror qabul qilishni dalillashga xizmat qiluvchi monitoring vositasini yaratadi.

Intervensiya paketining dizayni boshqaruvning amaliy ehtiyojlariga mos ravishda tuzildi. "Media-boshqaruv reglamenti" rollar, javobgarlik va kontent tasdiqlash oqimini aniq belgilab, muloqot jarayonini institutsionallashtirdi; 90 kunlik kontent-kalendar mavsumiy axborot ritmini ta'minlab, tashqi auditoriya bilan aloqani rejalashtirishni soddalashtirdi; mini media-laboratoriya esa minimal, ammo yetarli texnik infratuzilmani yaratar ekan, real kontent ishlab chiqarish va tezkor tahrirni amaliy ko'nikmaga aylantirdi; yillik attestatsiya (test, keys, portfel, ichki audit) esa o'rganilgan ko'nikmalarni qayd etib, uzluksiz yaxshilanish siklini ishga tushirdi. Intervensiya joriy etilgach, I_MC dinamikasi tajriba guruhida sezilarli o'sishni namoyish etdi; farqlar parametrik baholash natijasida ishonchli darajada tasdiqlandi. Bu natijalar statistik ahamiyat bilangina cheklanmay, amaliy samaradorlikka ham ega bo'lib, eng avvalo, raqamli kommunikatsiya va mediavaxfsizlik yo'nalishlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Rasmiy kanal siyosatining aniq yozilishi va javob skriptlarining standartlashuvi muloqotning izchilligini ta'minladi; bolalar ma'lumotlarini himoya qilish protokollarining aniqlashuvi esa mas'uliyat zanjirini shaffolashtirdi va xavfsizlik madaniyatini kuchaytirdi.

Muhokama bosqichida ikki muhim jihat alohida ta'kidga loyiq. Birinchisi, alohida komponentni omuxta ravishda kuchaytirish (masalan, faqat texnik vositalarni yangilash) integrativ natijani bermaydi; miqyosi kichik bo'lsa-da, protsedura va siyosatlarning aniq yozilishi hamda ularning kundalik amaliyotga tatbiqi hal qiluvchi omil bo'lib chiqdi. Ikkinchisi, kontent-kalendar va metrikalar paneli o'rtasidagi bog'liqlik natijaning barqarorligini ta'minlaydi: rejalashtirilgan axborot oqimi faktik ko'rsatkichlar bilan bog'lanmaganda, kommunikatsiya hajmi oshishi mumkin, ammo sifat jihati har doim ham yaxshilanmaydi. Shuning uchun indeksga ulangan monitoring rejimi va qisqa siklli qayta sozlash amaliyoti (feedback loop) muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv PDCA logikasi bilan uyg'un bo'lib, rejalashtirish, bajarish, tekshirish va takomillashtirish bosqichlarini mediakompetentlik komponentlari bilan bevosita tutashtiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy implikatsiyalari keng. Ota-onalar bilan muloqotda javob vaqti va ohangning barqarorlashuvi, nizoli vaziyatlarda deeskalatsiya skriptlarining qo'llanishi, ichki yig'ilishlar sonining kamayishi va jamoa vaqtining samaraliroq taqsimlanishi indeksda qayd etilgan ijobiy o'sish bilan mos tushdi. Bu o'zgarishlar muassasa brend obro'siga ham ta'sir ko'rsatib, tashqi auditoriya ko'z o'ngida tashkilotning ochiqligi va ishonchiligidini kuchaytirdi. Raqamli ijtimoiy ishtirok va hamkorlik madaniyati mediakompetentlikni shakllantirishda muhim omil bo'lib, bu yondashuv tashkilot ichki kommunikatsiyasini ham mustahkamlaydi [4]. Shuningdek, medialiderlik ko'nikmalarining mustahkamlanishi jamoa ichki kommunikatsiyasini yaxshilab, tashabbuslar aylanishini tezlashtirdi. Mazkur natijalar, umuman, integrativ yondashuvning institutsional darajada qo'llanilganda kutilgan samarani bera olishidan dalolat beradi [3–5, 7–10].

Shu bilan birga, ba'zi cheklovlar ham mavjud. Empirik dizayn mintaqaviy kontekst bilan bog'liq bo'lgani uchun kengroq generalizatsiya ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi lozim. Ma'lumotlar asosan o'zini-o'zi baholash va tashqi kuzatuvlarga tayanadi; kelgusida obyektiv log-fayllar, xulqiy metrikalar va kontent sifati ekspertizasini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, indeks vaznlarining dinamik qayta kalibrlanishi, turli tipdagi MTTlar (shahar–qishloq, yirik–kichik) uchun differensial me'yorlar ishlab chiqilishi istiqbolli yo'nalishlar sirasiga kiradi. Shunga qaramay, taqdim etilgan yondashuv operatsion jihatdan soddaga, resursta bo'yicha mo'tadil va boshqaruv qarorlarini dalillashga mos ekani bilan ajralib turadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil va natijalar MTT direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida boshqaruv sikliga birlashtirish barqaror ijobiy o'zgarishlar beradi, degan xulosani tasdiqladi. Ayniqsa, raqamli kommunikatsiya va mediavaxfsizlik yo'nalishlarida sezilarli o'sish kuzatildi: rasmiy kanal siyosati aniq belgilanganda javob vaqti barqarorlashadi, ohang izchil saqlanadi, nizoli vaziyatlarda deeskalatsiya matnlari real samaradorlik ko'rsatadi. Bolalar ma'lumotlarini himoya qilish bo'yicha ichki protokollarni aniqlashtirish mas'uliyat zanjirini shaf-folashtirib, xavfsizlik madaniyatini kuchaytiradi; medialiderlikning mustahkamlanishi esa jamoa motivatsiyasi va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash tezligini oshiradi. Integrativ indeks (I_MC) murakkab kompetensiyalar majmuasini boshqaruvga qulay bitta ko'rsatkichga jamlab, qaror qabul qilishni dalilga tayantiradi va monitoringni soddalashtiradi.

Shu bilan birga, bir qator muammolar aniqlandi. Ba'zi muassasalarda texnik vositalar mavjud bo'lsa-da, siyosat va tartiblar yozma ravishda mustahkamlanmagani sababli kommunikatsiyada fragmentarlik yuzaga keladi va xabarlar turli kanallarda bir-biridan farq qiluvchi ohangda tarqaladi. Deeskalatsiya skriptlari mavjud bo'lib, amaliyotga yetarlicha singmagani uchun nizolarni tez yopish imkoniyati to'liq ishga tushmaydi. Kontent rejalashtiruv bilan metrikalar paneli o'rtasidagi bog'liqlik yetarli darajada kuchli bo'lmaganda, xabarlar hajmi ortsa ham, sifatning o'sishi har doim ham kafolatlanmaydi. Ayrim hollarda bolalar ma'lumotlari bo'yicha ichki tartib-qoidalar juda umumiy yozilgan bo'lib, insidentlarga javob berishda rollar va javobgarlikni aniqlashda noaniqlik keltirib chiqaradi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun amaliy va normativ yo'nalishlar uyg'un holda tavsiya etiladi. Avvalo, media-boshqaruv reglamenti bir sahifalik "asosiy qoidalar" va kengaytirilgan "jarayon xaritasi" bilan rasmiylashtirilib, rollar, javobgarlik, tasdiqlash oqimi va rasmiy kanallar qat'iy belgilab qo'yilishi zarur. 90 kunlik kontent-kalendar mavsumiy mavzular, ota-onalar bilan muloqot rubrikalari va xavfsizlik eslatmalarini oldindan rejalashtiradigan formatda yuritilib, har bir hafta yakuni metrikalar paneli bilan bog'lanadi; shu tarzda rejalashtirish "ko'rsatkichlar-qarorlar" mexanizmi orqali real ta'sirga aylantiriladi. Deeskalatsiya bo'yicha 3–4 ta tayyor matn turli ssenariylar uchun moslashtirilib, jamoa tomonidan muntazam mashq qilinadi; bu skriptlar xizmat ko'rsatish madaniyati standartlari sifatida reglamentga kiritiladi. Bolalar ma'lumotlarini himoya qilish protokollari mahalliy me'yorlar bilan mos ravishda qayta ko'rib chiqilib, ruxsatlar, saqlash muddatlari, kirish huquqlari va insidentlarga javob berish tartibi bo'yicha aniq bandlar bilan to'ldiriladi. Mini media-laboratoriya minimal, ammo yetarli texnik baza bilan ta'minlanib, real vaziyatlarda tezkor kontent tayyorlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi; yillik attestatsiya (test, keys, portfel, ichki audit) jarayonlari esa o'rganilgan kompetensiyalarni barqarorlashtiradi va qayta kalibrashga asos yaratadi.

Kelgusida I_MC indeksini vizual boshqaruv paneli ko'rinishida joriy etish, hududlar kesimida benchmarking va qisqa mikromodullar orqali rahbarlar tayyorgarligini uzluksiz yangilab borish maqsadga muvofiq. Shu yondashuv orqali texnik vositalar, siyosat–protseduralar va odam omili bir tizimda ishlaydi; natijada mediakompetentlik kundalik boshqaruv amaliyotida ko'rinadigan, o'lchanadigan va bosqichma-bosqich takomillashadigan sifat darajasiga ko'tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. Global Media and Information Literacy Assessment Framework. Paris: UNESCO, 2013/2021.
2. Redecker, C. European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
3. Hobbs, R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. Thousand Oaks, CA: Corwin/SAGE, 2011.
4. Jenkins, H., Purushotma, R., Weigel, M., Clinton, K., Robison, A. J. Confronting the Challenges of Participatory Culture: Media Education for the 21st Century. Chicago, IL: MacArthur Foundation, 2009.
5. Ferrés, J., Piscitelli, A. Media competence: Articulation of dimensions. Comunicar, 2012.
6. ISTE. ISTE Standards for Education Leaders. Eugene, OR: International Society for Technology in Education, 2018.
7. Федоров, А. В. Медиаобразование. Ростов-на-Дону: ЦББР, 2001.
8. Вартанова, Е. Л. Медиа и коммуникации в России. Москва: Аспект Пресс, 2013.
9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga qo'yiladigan Davlat talablari. Toshkent, 2020.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ–2707 (29.12.2017). Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.